

**TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ORTIQOVA E‘ZOZA ZOKIRJON QIZI

**MIKROTO‘LQINLAR YORDAMIDA PILLALARNI DASTLABKI
ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH**

**05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish**

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent- 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferatining
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Ortiqova E‘zoza Zokirjon qizi

Mikroto‘lqinlar yordamida pillalarni dastlabki ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish..... 3

Ортикова Эъзоза Зокиржон кизи

Совершенствование технологии первичной обработки коконов с использованием микроволн..... 23

Ortikova E‘zoza Zokirjon kizi

Improving cocoon primary processing technology using microwaves..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 47

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSC.03/2025.27.12.T.21.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT TO‘QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI

ORTIQOVA E‘ZOZA ZOKIRJON QIZI

MIKROTO‘LQINLAR YORDAMIDA PILLALARNI DASTLABKI
ISHLOV BERISH TEXNOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

05.06.02 – To‘qimachilik materiallari texnologiyasi va xomashyoga
dastlabki ishlov berish

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent- 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.Phd/T5120 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.titli.uz) va «Ziyonet» axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Axmedov Jaxongir Adxamovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Nabiyeva Iroda Abdusamatovna
texnika fanlari doktori, professor

Raximov Akmal Alisherovich
texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),
dotsent

Yetakchi tashkilot:

Ipakchilik ilmiy tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSC.03/2025.27.12.T.21.01raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “10” aprel soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. Manzil:100100, Toshkent shahri, Shohjahon ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin 287-raqami bilan ro‘yxatga olingan. (Manzil:100100, Toshkent shahri, Shohjahon ko‘chasi, 5-uy. Tel.: (+99871) 253-06-06; faks: (+99871) 253-36-17; e-mail: titlp info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferat 2026-yil “25” mart kuni tarqatildi.
(2026-yil “25” martdagi 287-raqamli reyestr bayonnomasi).



X.X. Kamilova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, t.f.d., professor

A.Z. Mamatov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

Sh.Sh. Xakimov
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi
Ilmiy seminar raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda ipakchilik sanoati sanoat sohasiga xomashyo yetkazib beruvchi eng tez rivojlanib borayotgan yengil sanoatning asosiy turlaridan biri hisoblanadi. Dunyo miqyosida pilla yetishtirish va pilla xomashyolarini qayta ishlash bo'yicha Xitoy Xalq Respublikasi, Hindiston, Braziliya, Yaponiya, Koreya Respublikasi, Tayland, Vetnam davlatlari hamda O'zbekiston Respublikasi dunyo yetakchiligini egallab kelishmoqda. Jumladan, jahon tajribasida qo'llanib kelinayotgan, yangi yondoshuvlardan biri mikroto'lqinlar yordamida pillalarni dastlabki ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirish masalasi yildan-yilga rivojlanib, jahon amaliyotiga keng tatbiq etib kelinmoqda. Shu jihatdan xom ipak xususiyatlari saqlab qolish, pilla xomashyosidan samarali foydalanish, raqobatbardosh yuqori sifatga ega bo'lgan ipak mahsulotlarini yangi turlarini yanada rivojlantirish uchun mikroto'lqinlar yordamida pilla xomashyolariga ishlov berish texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etish pillachilik sohasidagi dolzarb muammolarni bartaraf etish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda mikroto'lqinlar yordamida pilla xomashyolariga dastlabki ishlov berish texnologiyalaridan samarali foydalanish, dastlabki ishlov berish turlarini kengaytirish, pilla xomashyolariga zarar yetkazmaslik, ularni jonsizlantirish va quritish, me'yoriy namlikka keltirishga qaratilgan yangi imkoniyatlarni ipakchilik korxonalariga tatbiq etish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu yo'nalishda mikroto'lqinlar yordamida pillalarni dastlabki ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish kabi tadqiqotlar ustuvor hisoblanmoqda. Shu bilan bir qatorda, pillani qayta ishlash sohasini modernizatsiyalash va sohani innovatsion texnologiyalar bilan ta'minlash hamda tayyor ipak mahsulotlarini raqobatbardoshligini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Respublikamizda tabiiy ipak xomashyosini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo'shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan, "qishloq xo'jaligini xususan, pillachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish, yetishtiriladigan pilla xomashyosi va tayyor ipak mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish, to'qimachilik sanoati mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2 barobarga ko'paytirish" kabi ustuvor vazifalar belgilab berildi. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda yetishtirilgan pilla sifati va texnologik xususiyatlarini yaxshilashga qaratilgan yangi texnologiyalarni tadqiq etish hamda yuqori sifatli ipak xomashyosini ishlab chiqarish muhim dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 17-yanvardagi PQ-4567-son "Pillachilik tarmog'ida ipak qurti ozuqa bazasini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2020-yil 02-sentabrdagi PQ-4817-son "O'zbekiston Respublikasi Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi, 2021-yil 08-iyuldagi PQ-5178-son "Respublikada mavjud yaylovlardan unumli foydalanish, ipak va junni qayta ishlashni qo'llab-quvvatlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 24-fevraldagi PQ-73-son

“Ipakchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 21-iyuldagi VM-305-son “Pillani qayta ishlash va pilla qurti urug‘ini ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan pilla boquvchilarga yetkazib berilgan ipak qurti urug‘i uchun subsidiya ajratish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash” qarori hamda mazkur yo‘nalishdagi boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bo‘g‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar II. “Energetika, energiya va resursatejamkorlik” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ipak qurti g‘umbagini jonsizlan-tirish va pillani quritishni takomillashtirilgan usullarini yaratish, pillalarga ishlov berish texnologiyalarini takomillashtirish, uni matematik modellashtirish orqali yuqori sifatli xom ipak mahsulotlarini tayyorlash, ipak mahsulotlari yangi turlarini yaratish va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan bir qator ilmiy-tadqiqotlar ishlari jahonning yetakchi ilmiy markazlari, oliy ta‘lim tashkilotlari hamda sohaning yetuk olimlari tomonidan o‘rganib chiqilgan.

Jumladan, China Jiliang University (AAU), Wuhan Textile University, Anhui Sanli Silk Group Co., Ltd (Xitoy), South Indian Textile Research Association-Sitra, Central Silk Technological Research Institute, Deakin Universite (Tayland), University of the Pacific-San Francisco (AQSH), Dortmund Technical University (Germaniya), Bursa Uludag‘ University (Turkiya), Akademik M.S.Osimi nomidagi Tojikiston texnologiya universiteti, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti tomonidan ko‘plab ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Xorijlik olimlardan L.Wenfeng, Ch.Hongyuan, W,Shaozhi, M.Yungen, L.Yizhou, J.Xin, T.Chuang, D.Kumar, D.Naskar, K.Wongkasem, P.Tzenov, N.Baramidze, U.Shaxan, H.Junzhao, Li.Yumei, T.Yuchun; M.Yanming, Sun Yihua Wang Shaozhi; Z.Huacheng, Sun Yihua, Shen Binghonglar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan.

MDX mamlakatlarida pillalarga dastlabki ishlov berish usullari va texnologiyalarini yaratish, texnologiyalarni takomillashtirish, pillalarni chuvish va xom ipakni eshish jarayonlarini tadqiq qilish va samaradorligini oshirish orqali yuqori sifatli xom ipak olish hamda ulardan samarali foydalanishning nazariy va amaliy asoslarini yaratish bo‘yicha bir qator yetuk olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, E.B.Rubinov, M.B.Abdullayev, M.Y.Bakirov, A.A.K.Abiyev, G.M.Gasumov, U.A.Arifov, A.F.Sviridov, A.A.Tulepov, T.A.Zakirov, P.D.Sadikov, L.A.Semenov, B.S.Yurkov, I.V.Zlatkiy, I.Babich, A.D.Abramov, I.Z.Burnashev, Sh.A.Qodirovlar soha ilmining rivojiga munosib hissa qo‘shgan.

Respublikamiz olimlardan X.A.Alimova, B.M.Mardonov, A.E.Gulamov, O.Axunbabayev, Sh.R.Umarov, N.M.Islambekova, U.N.Nasrillayev, J.A.Axmedov, K.R.Avazovlar ipakchilik sohasini rivojlantirish bo‘yicha samarali ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Yuqoridagi mazkur tadqiqot ishlarida asosan pillani yangi turlarini yetishtirish, pillalarni chuvish va xom ipakni eshish jarayonlarini tadqiq qilish va samaradorligini oshirish orqali yuqori sifatli xom ipak olish, ipak qurti g‘umbagini jonsizlantirish va pillani quritishni takomillashtirilgan usullarini yaratish kabi ishlar tadqiq qilingan. Biroq mazkur olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarida mikroto‘lqinlar yordamida pillalarga dastlabki ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F-A-2018-026 “Tabiiy ipakni va uning nanobo‘lakchalarini qo‘llab, tibbiyotda va maishiy ehtiyojlarda foydalaniladigan mahsulotlarni yangi turlarini ishlab chiqarish usullari va texnologiyalarini yaratish” (2018-2020), Jahon bankining Development of antimicrobial nonwoven products from silk waste for medical applications (2022-2024) mavzusidagi loyihalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi respublikamizda mahalliy sharoitda yetishtirilayotgan Xitoy duragayi pillalarga mikroto‘lqinlar yordamida dastlabki ishlov berishning texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turli mavsumlarda mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pilla g‘umbagini mikroto‘lqinlar yordamida dastlabki ishlov berib, jonsizlantirish vaqti davomiyligi ta’sirini tadqiq qilish;

tirik pillalar g‘umbagiga mikroto‘lqinlar yordamida dastlabki ishlov berib jonsizlantirishda namlik ajralishini nazariy tahlil qilish;

pillalarga mikroto‘lqinlar yordamida dastlabki ishlov berishda uning qobiq xususiyatlari, ipakchanligi hamda xom ipak sifatiga ta’sir etuvchi omillarni nazariy va amaliy jihatdan asoslash;

pillalarga mikroto‘lqinlar yordamida dastlabki ishlov berishning texnologik rejimlarini va texnologiyasini takomillashtirish.

Tadqiqotning ob’yekti sifatida Respublikamizda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti Mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalariga dastlabki ishlov berish, mikroto‘lqinlar yordamida g‘umbaklarni jonsizlantirish hamda pillaning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlashdagi uslub va vositalar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida pillalarning texnologik xususiyatlarini aniqlash, ularni quritishda namlikni ajralishini tajriba analizi va matematik statistika, dasturiy ta’minot, xom ipakning sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash, kuzatuv, tizimli yondashuv, iqtisodiy taqqoslash hamda ilmiy umumlashtirish kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

birinchi va ikkinchi takroriy mavsumlarda, mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalari g‘umbagini mikroto‘lqinlar yordamida jonsizlantirishda

ularning qobiq xususiyatlariga salbiy ta'sir qilmaydigan rejimlar tanlangan, g'umbakni shikastlanishini inobatga olgan holda mikroto'liqlar yordamida dastlabki ishlov berishning texnologiyasi takomillashtirilgan;

mikroto'liqlar yordamida pillalarga dastlabki ishlov berish orqali g'umbakni quritish jarayonida pilla sifatiga ta'sir etuvchi issiqlik va namlik ajralishi omillarining ratsional qiymatlari qurilgan regressiya modellari tahlili asosida aniqlangan;

birinchi va ikkinchi takroriy mavsumlarda, mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pilla qobig'i qalinligiga mos ravishda mikroto'liqlar yordamida g'umbakni jonsizlantirish texnologik parametrlarining ratsional qiymatlari ishlab chiqilgan;

quritish jarayoniga tavsiya etilgan mikroto'liqlar yordamida pillalarga dastlabki ishlov berish texnologik rejimlari birinchi va ikkinchi takroriy mavsumlarda yetishtirilgan pilla o'lchamlariga, qobiq qalinligiga va uning pishganligiga bog'lanishlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pillalariga mikroto'liqlar yordamida dastlabki ishlov berib g'umbagini jonsizlantirishda to'liqlar chastotasini tanlash orqali g'umbakni shikastlanishini inobatga olgan holda dastlabki ishlov berish texnologik jarayoni takomillashtirilgan;

pilla g'umbagini quritish jarayonida pilla sifatiga salbiy ta'sir etuvchi issiqlik va namlik ajralishi omillarini ratsional qiymatlari nazariy jihatdan aniqlangan va amaliy tajribalar orqali asoslangan;

mahalliy sharoitda yetishtirilgan Xitoy duragayi pilla qobig'i qalinligiga mos ravishda mikroto'liqlar yordamida g'umbakni jonsizlantirish texnologik parametrlarining ratsional qiymatlari ishlab chiqilgan;

mikroto'liqlar yordamida pillani dastlabki ishlash texnologik rejimlari, to'liq chastotasi, ishlov berish vaqti mavsumlarda yetishtirilgan pilla o'lchamlariga, qobiq qalinligiga hamda pishganligiga bog'liqligi ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining ishonchligi tajribalar ma'lumotlarini statistik ishlov orqali asoslanganligi, olingan tajriba natijalari parallel tajriba natijalariga mos kelishi, pillalar g'umbagini mikroto'liqlar yordamida jonsizlantirishni nazariy va amaliy modellarining o'zaro yaqinliklari, pilla qobig'iga texnologik ko'rsatkichlariga dastlabki ishlashda ta'sir qiluvchi omillarning statistik tahlil qilinganligi hamda zamonaviy metodlarni qo'llanilishi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan taklif va tavsiyalardan "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar faoliyatini takomillashtirishda hamda pillalarini mikroto'liqlar yordamida dastlabki ishlashning takomillashtirilgan texnologik rejimlari va parametrlarini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalar uchun pillalarni mikroto'liqlar yordamida dastlabki

ishlashning takomillashtirilgan texnologik rejimlari va parametrlarini rivojlantirishga doir dasturlar va strategik rejalarni ishlab chiqishda, pillani dastlabki ishlash bazalari faoliyatini samaradorligini oshirishda, sohada yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishda, pilla g'umbaklarini jonsizlantirish va quritish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar va maqsadli davlat dasturlarini ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mikroto'lqinlar yordamida pillalarni dastlabki ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar va ishlab chiqilgan takliflar asosida:

tavsiya etilgan takomillashtirilgan quritish texnologiyasi "O'zbekipaksanoat" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda, jumladan Surhondaryo viloyatidagi "Surxondaryo agro pilla" MChJ, hamda Samarqand viloyatidagi "ISHTIHON SILK" MChJ korxonalariga joriy qilingan. ("O'zbekipaksanoat" uyushmasining 2025-yil 25-noyabrdagi 4-2/2000-son, ma'lumotnomasi). Natijada korxonalarda pillalarni quritish uchun sarflanadigan yoqilg'i tejab qolishga, soyali quritish vaqti 30 kundan 10 kunga qisqartirishga, pillakashlik korxonalarida amaldagi standart talablarining "A" sinfiga mos ishlab chiqarilayotgan xom ipak sifat ko'rsatkichlari yaxshilanishiga, pillaning qobiq xususiyatlari tabiiy yaxshi saqlanishi hisobiga standart talablarining "3A" sinfiga mos yuqori sifatli xom ipak olish imkoniyati yaratishga hamda pillalarni quritish vaqti 1,5 soatdan 3 daqiqaga kamaytirilishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy ilmiy va amaliy natijalari 12 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, jumladan, mahalliy jurnallarda 8 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 4 ta maqola nashr etilgan hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1 ta № IAP 07577-sonli ixtiro patenti olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, o'rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi va tadqiqotda qo'llanilgan usullar, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Pilla yetishtirish tarmog'idagi mavjud muammolar**" deb nomlangan, unda pilla yetishtirish, ularga dastlabki ishlov berish va qayta ishlashning holati, istiqbollari, tirik pilla g'umbagini jonsizlantirish va

quritish texnologiyasiga yo'naltirilgan ilmiy ishlar tahlili, pillalarni dastlabki ishlov berish usulini qobig'iga ta'siri ko'rib chiqilgan hamda tadqiqot ishida jahon miqyosida xom ipak yetishtirish va qayta ishlash ko'rsatkichlari, 2020-2025 yillarda Respublikamizda tirik pilla yetishtirishni rivojlantirish ko'rsatkichlari keltirilgan. Tahlilliy ma'lumot va statistik ko'rsatkichlardan ko'rinadiki, mamlakatimizda pilla xomashyosini yetishtirish, unga ishlov berish va qayta ishlash holati yildan-yilga rivojlanib bormoqda. Sohada yangi islohotlarni amalga oshirilishi natijasida esa eksport hajmini yuqori sur'atlarda ortib borishiga, hududlar kesimida pilla yetishtirish hajmini yildan-yilga o'sishiga va unga ishlov berish bo'yicha innovatsion yangi texnologiyalarni amaliyotga keng tatbiq etilishiga erishiladi. Shundan kelib chiqib dissertatsiyaning aniq maqsad va vazifalari belgilab olingan.


Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Pillalarga dastlabki ishlov berishni tadqiqot uslubi va tajribaviy qism”** deb nomlangan bo'lib, unda tirik pillalar g'umbagini jonsizlantirishda mikroto'lqinli texnologiyadan foydalanish, tirik pillalarga mikroto'lqinlar yordamida dastlabki ishlov berishda g'umbakdagi namlikni ajralishini nazariy tahlili hamda tirik pillalarga dastlabki ishlov berish texnologiyasini takomillashtirish uchun mikroto'lqinli laboratoriya qutitgichi parametrlarini asoslash tadqiq qilingan.

Mikroto'lqin tushunchasini paydo bo'lishi va mikroto'lqinli uskunalarni yaratilishi hamda rivojlanish tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, XX asrda ilmiy texnika taraqqiyoti va ilmiy texnika inqilobi natijasida fan-texnika taraqqiyotini rivojlanib borishi oqibatida mikroto'lqinlar bilan ishlaydigan qurilmalarni ixtiro qilish va amaliyotga keng tatbiq etish ishlari yildan-yilga rivojlanib borishiga erishildi. Natijada esa, bugungi kunga kelib zamonaviy imkoniyatlarga ega bo'lgan mikroto'lqinli uskunalarni yaratilishiga turtki bo'ldi. Mikroto'lqin tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsak, mikroto'lqinlar kuchli va moslashuvchan elektromagnit nurlanish turi bo'lib, hayot tarzini butunlay o'zgartirib yuboradi. Mikroto'lqinlar zamonaviy taraqqiyotning muhim tarkibiy qismi bo'lib, oziq-ovqat tayyorlashdan tortib, muloqotgacha bo'lgan barcha narsada qo'llanib kelinadi.

Tadqiqot ishi doirasida muallif tomonidan yuqoridagi 1-rasmda mavjud SK-150K agregatida va takomillashtirilgan mikroto'lqinlar yordamida pillaga dastlabki ishlov berishning texnologik jarayonlari ketma-ketligi ishlab chiqilgan bo'lib, bunda asosan eski texnologik jarayonlardagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida takomillashtirilgan texnologik jarayon ishlab chiqilgan. Mikroto'lqinlar yordamida pillaga dastlabki ishlov berishda erishiladigan samaradorlik asoslab berilgan. Pilla yetishtirish bilan faoliyat ko'rsatuvchi korxonalariga mazkur texnologik jarayon tatbiq etilgan bo'lib, hozirgi kunda korxonalarni iqtisodiy samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mikroto'lqinlar yordamida pillaga dastlabki ishlov berishning afzalligi, samaradorligi va resurs tejamliligi aniq misollar asosida bayon etilgan.


Tadqiqot ishi doirasida mikroto'lqinlar yordamida dastlabki ishlov berilgan pilla qobig'ini va issiq havo bilan ishlov berilgan pilla qobig'ini mikroskopik suratlari tahlil qilindi. Bunda, mikroto'lqinlar yordamida pillaga dastlabki ishlov berishda

g'umbakka mikroto'qinli nurlanish to'qinlar shaklida birga harakatlanadigan elektr va magnit energiyadan iborat ta'sir ko'rsatadi.



1-rasm. Mavjud SK-150K agregatida va takomillashtirilgan mikroto'qinlar yordamida tirik pillalarga dastlabki ishlov berishning texnologik jarayonlari ketma-ketligi

Mikroto'qinlar yuqori chastotada ishlagani uchun ularni ionlashtiruvchi bo'lmagan nurlanish shakliga aylantiradi ya'ni minimal ta'sir qilib tashqaridagi odamlarga zarar yetkazmaydi. Mikroto'qinli texnologiyalar pillaga dastlabki ishlov berish uchun juda mos keladi, chunki ular metallardan sakraydi, shisha va qog'oz kabi materiallardan yaxshi o'tadi va g'umbakning ichi va tashqarisi tomonidan butunlay so'riladi. Mikroto'qinli texnologiya, shuningdek, telefon aloqasida va kauchukni vulkanizatsiya qilish uchun ham ishlatiladi. Quyidagi 2-rasmda mikroto'qinlar yordamida dastlabki ishlov berilgan pilla qobig'ini mikroskopik surati va 3-rasmda esa issiq havo bilan ishlov berilgan pilla qobig'ini mikroskopik sur'ati keltirib o'tilgan.



2-rasm. Mikroto‘lqinlar bilan dastlabki ishlov berilgan pilla qobig‘ini mikroskopik sur‘ati



3-rasm. Issiq havo bilan dastlabki ishlov berilgan pilla qobig‘ini mikroskopik sur‘ati

Mazkur 2 va 3-rasmlar tahlilidan ko‘rish mumkinki, mikroto‘lqinlar yordamida pillaga dastlabki ishlov berilganda qobiqdagi tolalar orasida g‘ovaklar tabiiy holicha saqlanib qoladi va qobiq xususiyatlariga salbiy ta‘sir ko‘rsatmaydi. Issiq havo orqali pillalarga dastlabki ishlov berilganda aksincha issiqlik ta‘sirida dastlab qobiq qiziydi, undagi namlik kamayadi, tolalar taranglashadi va yelimsimon modda seritsin elastik holatdan pilastik shishasimon holatga o‘tadi, natijada g‘ovaklar kichrayadi, suv o‘tkazuvchanligi va shimiluvchanglik xususiyatlari pasayadi. Pilla qobig‘ini g‘ovakli material deb qarab tahlil qilsak, unda materiallardagi namlik mos ravishda bug‘, suv yoki muz shaklida bo‘lishi mumkin. G‘ovakli material orqali uzatilishi mumkin bo‘lgan namlik asosan bug‘, suv yoki ikkalasidir. Namlikning g‘ovakli material orqali o‘tish jarayoniga ta‘sir qilishi mumkin bo‘lgan to‘rtta namlik uzatish mexanizmi mavjud, masalan, namlik konvektsiyasi, namlik tarqalishi, kapilyar assimilyatsiya stressidagi farqlar tufayli suyuqlik tashish va tortishish kuchi tufayli suyuqlik tashish. G‘ovakli materialning tuzilishi va atrof-muhit sharoitlari namlikni tashish shakllariga ta‘sir qiladi. Suv bug‘ining tashish qisman bug‘ bosimining gradiyentlari bilan bog‘liq va bosim farqi ostida yuqori bosimdan past bosimli mintaqaga o‘tadi. Gaz suv bug‘ining massa oqimi sifatida hisoblanadi. Suv bug‘ining zichligi kichik bo‘lsada, ma‘lum bosim farqlari ostida hajmli oqim tezligi katta bo‘ladi. G‘ovakli materialda sodir bo‘ladigan jismoniy jarayonni yanada qat‘iy tahlil qilishda namlikning mavjudligi qo‘shimcha tashish mexanizmini nazarda tutadi: to‘yinmagan pilla qobig‘i g‘ovaklarida suyuq suv issiq tomondan bug‘lanadi, bug‘lanishning yashirin issiqligini o‘zlashtiradi, shu bilan birga, bug‘ bosimi gradienti tufayli bug‘ g‘ovakning eng sovuq tomonida kondensatsiyalanadi va bug‘lanishning yashirin issiqligini chiqaradi. Yashirin issiqlik tashish pilla ichidagi harorat va namlik qiymatlarida katta tafovutlarga olib kelishi mumkin. Fizika qonuniyatiga muvofiq, namlikning tarqalishi bevosita suyuqlik ikki yoki undan ortiq tarkibiy qismlardan iborat bo‘lsa va konsentratsiya gradiyenti mavjud bo‘lsa, har bir komponent farqni kamaytirish uchun pastroq konsentratsiya yo‘nalishiga qarab harakat qiladi. Konsentratsiya gradiyenti namlik tarqalishining harakatlantiruvchi kuchdir. Pilla ichidagi g‘umbakdan namlik ajralishi qobiq orqali bo‘lishi har bir komponentning konsentratsiyasi massa konsentratsiyasi va moddaning konsentratsiyasi miqdori bilan ifodalanadi. G‘umbakdan namlikni ajralishi deganda - suyuqliklar (masalan, g‘umbak suyuqliklari, qobiq ichidagi gazlar) tashkil etilgan

molekulalar bir tomoniga, jamoaviy harakati tushuniladi. G'umbakdan ajralgan massa Nyutonning sovutish qonuniga o'xshash funktsiyalar bilan hisoblanishi mumkin.

Tirik pillada namlik erkin, gigroskopik va bog'liq holda bo'ladi. Kimyoviy bog'langan suv moddalar molekulasining aynan o'zining tuzilishida qatnashadi. Uni yo'qotish esa qaytmas o'zgarishlarni, ya'ni moddalarning emirilishini yuzaga keltiradi. Shu sababli pillalarni mikroto'lqinlar bilan quritish jarayonida bog'langan namlik yo'qotilmaydi, faqat gigroskopik namlik belgilangan me'yorgacha tushuriladi. Gigroskopik namlikni o'ta yo'qotilishi pillalarning fizik-kimyoviy xususiyatlarini o'zgarishiga olib keladi. Shuning uchun, 50-60% mikroto'lqinli quritishda namlik oraliqda qoldiriladi.

Olib borilgan tadqiqot ishlaridan kelib chiqib, pilla namligi (y , %) ning vaqt (t , min.) bo'yicha o'zgarishi bo'yicha regressiya tenglamasini tuzish uchun quyidagi ma'lumotlarni shakllantirib chiqdik. Ya'ni bunda a) empirik regressiya tenglamasi tuzish; b) Regressiya tenglamasining muhimlik darajasi $\alpha = 0,05$ bo'lganda baholash; v) o'zgaruvchilar orasida bog'lanish tig'izligini empirik korrelyasion nisbatni determinatsiya korrelyasiyasi R orqali baholash lozim. Korrelyasion bog'lanish uchun quyidagi chiziqsiz tenglamani qabul qilish maqsadga muvofiq bo'ladi ya'ni:

$$y_x = b_0 + b_1x + b_2x^2 \quad (1)$$

Pillalarni namligini vaqtga bog'liq holda o'zgarishi tajriba natijalari 1-jadvalda berilgan.


1-jadval

Vaqt me'yorlari orasida namlikni nisbati


Vaqt, min	0.5	1	1.5	2	2.5	3	3.5	4	4.5	5
Namlik, %	170	145	115	103	94	60	58	56	54	53

Mazkur 1-jadvalda asosan vaqt me'yorlari orasida namlikni nisbatini qanday tartibda o'zgarib borishini aniq tahlili ko'rsatib berilgan. 1-jadval tahlilidan ko'rish mumkinki, 3 daqiqada pillalarni namligi 60% ga pasayganligi ma'lum bo'ldi.

Ishlov berish vaqtini ortishi g'umbakni yorilib ketib ichki dog'li pillalar ko'payishiga olib keladi. Amaliy tajribalar asosida pilla namligini (y , %) nisbatdagi ko'rsatkichi hamda vaqt me'yorini esa (t , min.) ko'rsatkichi bo'yicha ularni o'zgarishini tajriba asosida tahlili amalga oshirilgan va natijada esa muallif tomonidan quyidagi 4-rasm ishlab chiqilgan.



4-rasm. Pilla namligi (y, %) ning vaqt (t, min.) bo'yicha o'zgarishi



5-rasm. Pilla namligi (y, %) ning vaqt (t, min.) bo'yicha o'zgarishi

Bu yerda: $y = 189,61 - 50,58x + 4,62x^2$

Yuqoridagi hisob-kitoblar tahlil qilib chiqilgan. 5-rasmda (1) tajriba va (2) aproksimatsiya chiziqlari deb ataladi. Pilla namligini vaqt bo'yicha kamaytirish jarayonini nazariy tadqiqiga qaraydigan bo'lsak, pillada namlikning vaqt bo'yicha kamayishini nazariy aniqlash uchun termodinamikaning adabiyotda ma'lum bo'lgan vaqt (min)n ushbu tenglamadan foydalanamiz:

$$C \frac{dW}{dt} = -\alpha W \quad (2)$$

Bu yerda: W - ixtiyoriy vaqtda pilladagi namlik (foizda), t - vaqt (min) C - muhit (pilla)ning namlik sig'imi, α - pilladan namlikni ajratish koeffitsiyenti. (1) tenglamaning $W(t_0) = W_0$ shartdagi yechimi quyidagicha:

$$W = W_0 \exp[-\beta(t - t_0)]$$

Bu yerda W_0 va t_0 tajribaviy parametrlar, $\beta = \alpha/S$ β -koeffitsiyentni yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib aniqlaymiz. Jadvalga ko'ra, $W_0 = 170$, $t_0 = 0.5$ qiymatlarida namlikning vaqt bo'yicha keltirilgan ikkita qiymatini olamiz W aniqlaymiz $\beta_1 = \frac{1}{45} \ln(\frac{170}{63}) = 0.2481$, $\beta_2 = \frac{1}{5} \ln(\frac{170}{50}) = 0.2447$. Bu sonlarning o'rtacha qiymati orqali parametr β qiymati aniqlanadi.

$$\beta = \frac{\beta_1 + \beta_2}{2} = 0.247$$

Yuqoridagi qiymatni 1,15 koeffitsiyentga oshrib bu koeffitsiyentni qabul qilamiz $\beta = 0.2834$. Parametrinig bu qiymatlarida tajriba va nazariy chiziqlari muallif tomonidan ishlab chiqilgan yuqoridagi 5-rasmda keltirib o'tilgan.

Ushbu 5-rasmda tajriba aproksimatsiyasi qora rangda hamda nazariy qismi qizil rangdagi chiziqlar orqali aks ettirilgan. Yuqoridagi tahlillarda asosan tirik pilla g'umbagini jonsizlantirishda namlik ajralishini nazariy tahlillariga doir bo'lgan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari va ilmiy tajribalarni tahlilini o'rganib chiqdik. Biroq, xorijlik olimlarning tadqiqot ishlarida mikroto'lqinlar yordamida pillalarni jonsizlantirishga qaratilgan nazariyalar va tajribalar yetarli darajada tahlil qilinmagan.

Bizning tadqiqot ishimiz doirasida esa aynan mikroto'lqinlar yordamida pillalarni jonsizlantirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Asosan ipak qurti pillalarini quritish va ipak qurti g'umbagini o'ldirish uchun ishlatiladi va uni

yorilishi va ifloslanishining oldini oladi. Mazkur moslamaning xususiyatlari quyidagicha:

- ipak qurti pillasining sifatini ta'minlash uchun past haroratda quritiladi;
- tez penetratsion quritish, yuqori samaradorlikni beradi;
- kam quvvatda ishlash pilla g'umbagini portlashini samarali ravishda oldini oladi.


Mazkur 2-jadvalda yangi mikroto'lqinlar yordamida pillaga dastlabki ishlov berish laboratoriya quritgichining texnologik parametrlari ko'rsatib o'tilgan.

2-jadval

Laboratoriya quritgichning texnologik parametrlari

T/r.	Texnologik parametrlari	Ko'rsatkichlar
1.	Quritgichning umumiy gabarit o'lchamlari, mm: Uzunligi: Kengligi: Balandligi:	600 550 400
2.	Og'irligi, kg	11
3.	Konveyerning harakat tezligi, m/min	5
4.	Qatlam qalinligi (pilla yoyilishi, mm):	15-20 mm (3 likopcha)
5.	Pilla sig'imi, gr:	150-200
6.	Ishlab chiqarish quvvati, kg/soat:	3-4kg
7.	Chastotasi:	2,45GHs
8.	Ichki hajmi l :	20
9.	Kamera ichidagi harorat, °C :	75-80
10.	Quritish davomiyligi, min	3
11.	Elektr energiya sarfi, kWt x soat:	0,77

Pillalar 150-200 g miqdorda quritgich kamerasiga (1) ta'minlash quvuri (2) orqali yuklanadi. Tushgan pillalar ishchi kamerasining yuqori qismida joylashgan birinchi likopchada (3) qabul qilinadi. Pillalar likopcha (3) bilan birga aylanib, mikroto'lqinli generator (15) dan keladigan yuqori chastotadagi nurlanishi ta'siriga duchor bo'ladi. Ishlov berish uchun zarur vaqt o'tgach, ikkinchi likopchaga (4) o'tish uchun quritgichning pastki qismida joylashgan chiqarish quvuri (6) soat mili yo'nalishi bo'yicha aylanadi. Unga ulangan tishli mexanizm (7) orqali aylanma harakat kurakchali mexanizmga (11) uzatiladi va birinchi kurakchani (8) harakatga keltiradi. Kurakcha (8) ishchi holatga aylanadi va pillalarning birinchi likopcha (3) yuzasi bo'ylab harakatlanishiga to'sqinlik qiladi. Pillalar likopcha (3) dagi tirqish (12) orqali ikkinchi likopchaga (4) tushadi. Kurakchani (8) boshlang'ich holatga qaytishi va ishlamaydigan holatda mahkamlanishi kontrkurakcha (18) tomonidan amalga oshiriladi. Quritgichning ishlash prinsipi quyidagi 6-rasmda keltirib o'tilgan:



6-rasm. Mikroto‘lqinli yangi quritkich laboratoriya uskunasi

Huddi shu tarzda pillalarning ikkinchi likopchadan (4) uchinchi likopchaga (5) ketma-ket o'tishi va ishlov berilgan pillalarning qurilmadan chiqarilishi amalga oshiriladi. Pillalar yo‘lini mos ravishda kurakchalar (9) va (10) to‘sadi, ular chiqarish quvuri (6) ning aylanishi bilan kurakchali mexanizm (11) orqali harakatga keltiriladi. Ko'rsatilgan kurakchalarning qaytishi va mahkamlanishi mos ravishda kontrkurakchalar (19) va (20) tomonidan ta'minlanadi. Ishlov berilgan pillalar chiqarish quvuri (6) orqali pastki yashikga (13) tushadi. Likopchalar (3,4,5) orasidagi masofa pillalar qatlami qalinligiga mos ravishda sozlanadi. Likopchalar yuqori sifatli termoplastikdan 3D-bosib chiqarish usuli bilan quyidagi talablarni hisobga olgan holda tayyorlangan: materialga iflosliklarning yopishishining oldini olish, pillalar qobig‘ining shikastlanishining va tolalarning o‘ralishining oldini olish. Termoplastik 400-700°C gacha issiqlikka chidamlilikka ega. Likopchalar (3, 4, 5) mikroto‘lqinli pech (15) ostida o'rnatilgan dvigatel (14) dan aylanma harakat oladi. Konstruksiyaning yuqori qismining qattiqligini va harakatsizligini ta'minlash uchun qopqoq (16) tayyorlangan bo'lib, uning o'lchamlari mikroto‘lqinli pech (15) ning gabaritlariga mos keladi. Pillalarning ish zonasidan tashqariga tushib ketishining oldini olish uchun likopchalar perimetri bo'ylab harakatsiz devor (17) o'rnatilgan bo'lib, uning diametri likopchalar diametriga mos keladi. Ushbu tadqiqot ishi doirasida pilla quritish jarayonining texnologik rejimlarini aniqlash maqsadida kichik hajmli mikroto‘lqinli laboratoriya quritgichi loyihalandi. Qurilmaning unumdorligi shundan iboratki, bitta siklda 150–200 g pilla 3 daqiqa davomida quritiladi. Shunga muvofiq, 30 daqiqada 1,5–2 kg, 24 soat davomida esa 72–96 kg pillaga dastlabki ishlov berish imkoniyati mavjud. O‘tkazilgan tadqiqotda takroriy birinchi mavsum, ikkinchi takroriy yetishtirilgan pillalar nazorat variantida bir xil quritish rejimida g‘umbagining to‘liq jonsizlanishi tekshirildi. Tajriba variantida esa, ishlov berish davomiyligi g‘umbakning to‘liq jonsizlanishi orqali aniqlandi. Mikroto‘lqinlar yordamida pillaga dastlabki ishlov berishda g‘umbakni to‘liq jonsizlantirishda chastota va mikroto‘lqinlar ta'sir etish davomiyligini aniq belgilash muhim ahamiyatga ega. Hozirgi kunda dastlabki ishlov berish bazalaridagi asosiy muammo

shundaki, mavjud texnologiyalarda ishlov berilganda yuqori harorat ta'sirida pillalarni qobiq ustki qismi juda tez qurib qattiqlashadi va chuvish jarayonida uzilishlar soni ortadi, bundan tashqari yuqori haroratda seritsin destruksiya uchrab, pillani tabiiy oq rangi sarg'ayadi. Mikroto'liqlar yordamida pillaga dastlabki ishlov berilganda ular to'g'ridan to'ri pillaning g'umbagiga tasir etganligi uchun qobiq sifatiga zarar yetkazmaydi.

